

## **Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar**

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025- yilning I-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **29 963,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yil bilan taqqoslaganda **10,5** foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonolari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida **39 772,9** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **111,4** foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **2 774,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,4** foizga yetdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2024- yilga nisbatan (**79,7** foiz) o'sish kuzatildi.

Viloyatda jami **2 409,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **109,9** foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **29 892** tani tashkil etib, ulardan **19 303** tasi yoki **64,6** foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2025- yilda viloyatda **866** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2024- yilga nisbatan **127** taga ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 129,9** mlrd. so'mni, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati **113,1** foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **3 247,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan **108,4** foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2025- yilning yanvar- mart oylarida **381,3** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport **275,8** mln. AQSH dollarini va import **105,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1-aprel holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **1 099,2** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **101,8** foizni tashkil etdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2025- yil I- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish

dasturiga asosan **8-** turdagi o'quv kurslarida **14** nafar xodimlarning malakasi oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli qarori talablari asosida ommaviy axborot vositalarida statistika faoliyatiga oid **48** ta televideniya, **52 ta** radio, **120** ta gazeta va jurnallarda statistik ko'rsatkichlar chop etildi hamda boshqarmaning veb-saytiga har oyda va chorakda tahliliy materiallar joylashtirilib kelinmoqda.

Hisobot davrida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda **257** ta statistika ishlari bajarildi va iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy statistik ma'lumotlar har oy va har chorakda Milliy statistika qo'mitasi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Tayyorlangan tahliliy statistik ma'lumotlar infografika, diagramma va videoroliklar ko'rinishida Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatildi.

Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish maqsadida, viloyat bo'yicha **36** marotaba seminarlar va **43** marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi hamda **2 562** ta buklet va qo'llanmalar tarqatildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida hisobot taqdim etish tartibini buzgan **298** ta tadbirkorlik sub'yektlariga ogohlantirish xatlari yuborilib, ulardan **111** tasi bartaraf etilgan bo'lib, qolgan **187** ta tashkilotga nisbatan o'z muddatida hisobot topshirilmaganligi sababli ma'muriy ishni ko'rib chiqish uchun chaqiruv xatlari yuborilgan.

Bundan tashqari, dastur doirasida amalga oshirilgan ishlarni bajarish jarayonida ayrim mas'ullar tomonidan nazorat susaytirib yuborilganligi natijasida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi tanqidiy muhokama qilindi.